

**XURSHID DO'STMUHAMMADNING "QICHQIRIQ" ASARIDA
INSON VA TABIAT O'RTASIDAGI MUNOSABAT**

Salimova Rayxona Burxon qizi

Guliston davlat universiteti Filologiya tillarini o'qitish

(o'zbek tili) yo'nalishi 2-bosqich talabasi

e-mail: salimovarayxona00@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tabiat va inson o'rtasidagi munosabat, kishi tabiatidagi kurashuvchanlik va bardoshlilik xislatlari tahlillar vositasi orqali yoritildi.

Kalit so'zlar: *ekokritik adabiyotshunoslik, pastoral adabiyot, tabiat tasviri, inson va tabiat o'rtasidagi munosabat, inson tabiatidagi kurashuvchanlik.*

Abstract: *This article explores the relationship between nature and humans, highlighting the qualities of resilience and the spirit of struggle inherent in human nature through analytical tools.*

Key words: *Ecocritical literary criticism, pastoral literature, depiction of nature, the relationship between humans and nature, and the spirit of struggle inherent in human nature.*

Badiiy asar qanday mavzuda bo'lmasin, qanaqa muammoni yoritib bermasin, unda tabiat tasviriga ham alohida urg'u beriladi. Adiblar uchun tabiat shunchaki tasvir manbai emas, balki ruhiy holatning, ichki kechinmaning ajralmas bir parchasidir.

Ekokritik adabiyotshunoslikning yirik namoyondalaridan biri Lawrence Buel o'z asarlarida tabiat tasviriga oid quyidagi g'oyalarni ilgari suradi: "Adabiy asarlarda tabiatni faol subyekt sifatida ko'rish lozim. U faqat fon emas, balki voqealarning ishtirokchisi bo'lishi mumkin. Ekologik mas'uliyat badiiy asar orqali o'quvchiga yetkazilishi mumkin bo'lgan eng muhim g'oyalardan biridir. Tabiat obrazlari orqali insonning axloqiy tanlovlari, qadriyatlari va jamiyatdagi o'rnini aks

ettiriladi "[1].

Terry Gifford esa o'z asarlarida pastoral adabiyot (tabiatni ideallashtiruvchi) va post-pastoral adabiyot (tabiatning murakkab, real tasviri o'rtasidagi farqni o'rganadi [2].

Tabiat tasviri qirg'iz adabiyoti vakili Ch. Aytmatov, o'zbek adabiyotidan esa Cho'lpon, Oybek, Sh. Xolmirzayev kabilarning ijodida salmoqli qismni tashkil qiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, tabiat nafaqat fon, balki syujetning faol ishtirokchisi, inson ruhiyatining bevosita ifodachisi sifatida gavdalanadi. X. Do'stmuhammadning "Qichqiriq" hokoyasida ham tabiat voqealarni rivojlantiradi, insonlar hayotini boshqa o'zanga soladi. Asar ekspozitsiyasi tabiat hodisasining kishilar umriga rahna solish tasviri bilan boshlanadi: "...har yili yoz kechalari uch, yo to'rt bola-baqra, goho kap-katta yoshdagi erkak Qichqiriqqa g'arq bo'ladi. Kunlab, haftalab butun mahalla-ko'y oyoqqa qalqiydi, izillab-bizillab, qidir ho qidir davom etadi..."

Asar bosh qahramoni-Sulton ismli yigit. U endigina kelin bo'lib tushgan, Qichqiriqdan suv olish uchun borib, cho'kib ketgan, Mavlon ismli qo'shnisining ayoli murdasini topishga kirishadi. Murdani topish uchun jalb qilingan g'avvoslar ham bu anhorning o'zani, oqimidan hayratga tushib, uzoq vaqt suvda qololmaydi: "Bu dunyoda men tushmagan suv qolmagan, illo bunaqasini ko'rmaganman".

Sultonga Qichqiriq oqimiga moslashib, soatlab suv ostidan jasadni qidirish uchun kuch bergan narsa-muhabbat. Boisi bu voqeani Sulton suyuklisi Bashoratga so'zlab berganida u bir necha marta qo'ng'iroq qilib kelinchakning topilgan-topilmaganini so'radi. Bu esa Sultonning quvvatiga quvvat qo'shdi. Buning yana bir isboti Sulton tomonidan aytilgan gapda oydinlashadi: "Bashoratoy dalda bersa, Qichqiriqda suv emas, olov oqsa ham kelinni topish ahdimdan qaytmayman!.."

Bir necha soatlik qidiruv davomida Sultonda anhorga bo'lgan muhabbat paydo bo'ladi: "Sultonning qalbida anhorga, anhorning ilang-bilang ilonizi

o'zaniga, uni to'ldirib-ayqirib oqayotgan suviga, bir-birini dam sassiz-nesiz, dam ko'pirib-oqarib, dam beozor-muloyim shovqin solib allaqanday zaruriyatdan quruq qolayotgandek shitob-la quvalashib borayotgan to'lqinlarga nisbatan mehr-shafqatga o'xshab ketadigan yaqinlik, ilqlik ko'z ochdi".

Asarda insonlarning ham tabiatga qilayotgan shafqatsizlarcha munsabatiga urg'u berilgan o'rinlar ham mavjud: "Sulton anhor o'zaniga termulganicha beixtiyor to'xtab qoladi, anhor tubida cho'kindi bo'lib yotgan shox-shabba bormi, temir-tersak, suyak-sayoq, xonadon devorlari osha itqitilgan ro'zg'or buyumlari, chiqindi qoldiqlari, shisha, sim... qiyofasini yo'qotgan qoramol, qo'y, it, mushuk murdalari...

Sulton kelinchak jasadining hafta o'tsa ham suv yuzasiga qalqib chiqmayotganining sababi suv ostidagi chiqindilar bois deb taxmin qiladi. U bilan Qichqiriq o'rtasida to'qnashuv yuz berganida bo'sh kelmaydi, maqsadi sari intiladi. Oyog'idan mador ketayotganini payqaganida "Mavlonbekning o'zini yordamga chaqirmabman-da", degan o'y keladi-yu, so'ng suv o'zani bilan yolg'iz kurashishni ma'qul topadi: "Sarkash to'lqin behisob katta-kichik girdoblarga bas kelayotgan Sultonni kunbotar tomonlarga shiddat bilan oqizib ketmoqchi, Sulton esa undan yengilishni xayoliga ham keltirayotgani yo'q..."

Inson qanchalik bardoshli bo'lishga urinmasin, Qichqiriq ham u bilan teng qasdlashib, oyoqlari, qo'llarini toldirdi. Lekin Sulton fitratidagi sarkashlik suv to'lqinlariga taslim bo'lishni xohlamas edi: "Qayta boshdan boshlayman! Kerak bo'lsa, o'n marta tushaman suvga, lekin topmaguncha qo'ymayman!.."

Mazkur asar mazmunidan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin: birinchidan, tabiat-inson hayotining ajralmas bir bo'lagi. U tabiat bilan qanday munosabatda bo'lsa, barchasi insonlarning o'ziga, albatta, ta'sir qiladi. Ikkinchidan, inson har qanday og'ir vaziyatda tahlikaga tushib qolmasdan, imkon boricha kurashish, yechim topishga urinish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gifford, T.** (2020). *Pastoral* (2nd ed.). London: Routledge. Gifford, T.** (2006). *Reconnecting with John Muir: Essays in Post-Pastoral Practice*. Athens, GA: University of Georgia Press.

2. Gifford, T. (2006). *Reconnecting with John Muir: Essays in Post-Pastoral Practice*. Athens, GA: University of Georgia Press.
3. Quronov D. *Adabiyot nazariyasi asoslari*. Navoiy universiteti, Toshkent-2018.
4. <https://tafakkur.net>.
5. Quronov D. *Adabiyot nazariyasi asoslari*. Noshir, Toshkent-2019.
6. <https://www.ziyouz.com>.